



DEVELOPMENT OF PERSONAL PRACTICAL COMPETENCIES OF WORK IN STUDENTS

Kadirova Buzulaykho Turg'unovna
ADPI PhD, friend

Annotation:

In this article, work is recognized as a strengthening tool of man and society. Information is provided about the requirements, opportunities and factors for the development of personal and practical competencies in the work process.

Keywords: work, society, initiative, globalization, continuous education.

Mehnat doim jamiyatni yuqori pog'onaga ko'taruvchi kuch hisoblanadi. Mehnat bilan inson go'zal hayot kechiradi, o'zi yashayotgan va qurayotgan jamiyatda ham o'zining mustahkam o'rnini topadi. Mehnatni tashkil etish, undan ko'zlangan maqsad, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlari sababli kelib chiqadi. Mehnatni tashkil qilish bu- nazariya va amaliyotga asoslangan holda ma'lum bir tashkilotda ish jarayoni unsurlarini uyushtirish tartibi va tamoyillaridir.

Mehnat –insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo, asosiy tushuncha sifatida tabiat predmetlarini o'zgartirib, inson ehtiyojlariga moslashtirishni ifodalaydi. Mehnat kishilik jamiyatining muhim sharti bo'lib, chunki u sababli insoniyatning yashashi uchun kerak bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Mehnat tufayli shaxs tabiatdagi narsalarni o'zgartiribgina qolmay, balki o'zi ham kamol topadi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. Mehnat jarayonida inson tabiat va borliq kuchlarini o'ziga bo'ysundiradi.

Talabalar ham bu mehnat jarayonlarida o'sadi, yurt ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shadilar. Talabalar o'z shaxsiy va amaliy kompetensiyalar yordamida mehnat jarayonlarini tashkil qilishadi. Kompetensiya bu- ma'lum bir fan sohasida samarali va oqilona faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligi bo'lib, talabalar mehnat kompetensiyasi yordamida dars jarayoni bilan faol, erkin va mustaqil shug'ullanishadi. Kompetensiya –real, hayotiy harakatni amalga oshirish qobiliyati va talabaning faoliyatga qo'shilishi paytida olingan malakaviy xususiyat; har qanday harakat ikki jihatga ega: resurs va samara; bu resursning mahsulotga aylanishini belgilaydigan kompetensiyalarni rivojlantirishdir; Talabalar mehnatning shaxsiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq mazmun (bilim) va protsessual (mahorat) komponentlarini o'z ichiga oladi. Bunda talabaning bilim doirasi, dunyoqarashi, malaka va ko'nikmalari, tafakkur va tasavvur olami yuqori





o`rinda turadi. Talabaning mehnat jarayonida shaxsiy amaliy kompetensiyalariga muloqotchanlik, bag`rikenglik, yetakchilik, faol va tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, sog`lom turmush tarzi, mas`uliyat, ishchanlik, insonparvarlik kabi xususiyatlar kiradi. Bunday kompetensiyalar talaba ijodi va o`qish faoliyatini yuqori pog`onaga ko`taradi.

“Kompetensiya” termini keng ma`noda umumiy masalalarni yechishda amaliy tajribalar asosida malaka va ko`nikmalarni qo`llash, samarali harakat qilish imkoniyatini bildiradi. Shu boisdan lotincha “campetere” -muvofiq bo`lmoq so`zidan kelib chiqqan. Masalan, “faollik va tashabbuskorlik” shaxsiy kompetensiyasi: bu har qanday harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta`sir ko`rsata olish demakdir. Doimo izlanishda bo`lish, yangi vazifalarni, qo`shimcha ishlarni o`z zimmasiga olish kabi jarayonlar nazarda tutiladi. Odatda har bir faoliyat uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetensiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatda o`qituvchi tomonidan talabalar uchun test savollari shakllantirilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Keng ma`noda mehnat shaxsiy amaliy kompetensiyalarning rivojlanishi amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko`nikmalarni qo`llay olish qobiliyatini anglatadi. Ta`limda mehnat shaxsiy kompetensiyalari bilan yondashuv talabalarni har xil ko`nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo`naltiradi.

Mehnat shaxsiy amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish- bu foydali va samarali natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. Bunday kompetensiyalar talabalarni doimiy davrga va zamonga shiddat bilan javob qaytarishlari uchun dasturulamal bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta`lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada metodologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida bo`lajak talabalar uchun mehnat shaxsiy amaliy kompetensiyalari tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi glabollashuv jarayonida dunyo miqyosida ta`lim barqaror taraqqiyotni ta`minlovchi asosiy jarayon sifatida e`tirof etilib, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta`lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta`lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bugungi kunda ta`lim sifati va samaradorligi unda faoliyat olib borayotgan o`qituvchilarning qanday bilimiga egaligi ya`ni, pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bog`liqdir. So`nggi





yillarda butun dunyoda mehnat bozoridagi talabning tez o'zgarishi, ish beruvchilarning faqatgina uning bilimi, ko'nikmasi va malakasigagina emas, balki uning shaxsiy sifatlariga ham e'tibor qarata boshlaganligi bilan belgilanadi. Bunda mehnat jarayonida o'qituvchining shaxsiy kompetensiyalari muhim o'rin. Zamon talablariga mos keladigan fidoiy izlanuvchan, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor kasbiy bilimlar, ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hozirgi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Sababi, bugungi zamonaviy ta'lim muassasasida har bir talabgorning shaxs ekanligini hisobga olib ijobiy ta'lim muhitni yaratishi, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashi, undan tashqari o'quvchilarni analitik, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishi kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda mehnat shaxsiy amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tizimini, ya'ni bo'lajak pedagoglarni yuqori malakali va mahoratli qilib tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badalova.B.T. Ta'lim tizimi va pedagogika nazariyasi.2020.
2. Qodirova, B. "Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals." *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems* 12.6 (2020): 1125-1129.
3. Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION POROCESSES IN UZBEKISTAN." *Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв* 3 (2018).
4. Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8: 189-194.
5. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадиий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." *Образование* 8.9 (2022): 10.
6. Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.02 (2022): 837-839.
7. Турғуновна, Қодирова Бузулайҳо, and Айнура Мархабаевна Бекжанова. "Бадиий асарлар воситасида бошланғич синф ўқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." *Образование* 8.9 (2022): 10.
8. Кодирова, Бузулайҳо Турғуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ





БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY*. 2020.

9. Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." *harmony* 3: 12.
10. Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." *Вопросы науки и образования* 7 (19) (2018): 213-215.
11. Кодирова, Бузулайхо Тургуновна. "Методологические основы формирования текстовой деятельности у учащихся в процессе постижения художественного произведения." *Научные исследования* 6 (26) (2018): 78-80.

